



1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 6-son

ISSN 2010-5584

til va adabiyot ta'limi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til.adabiyot.sciencedom.ru www.tiladab.yandex.ru til.adabiyot@mail.ru www.tiladab.yandex.ru til.adabiyot@mail.ru www.tiladab.yandex.ru til.adabiyot@mail.ru www.tiladab.yandex.ru

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN TAVALLUDIGA 224 YIL



Ushbu sonda



tilshunoslik

Kelishik va ko'makchilar
vazifadoshligi

4
het



tahlil

Navoiy yodga oлган
shoiralar

15
het



tadqiqot

Ikrom Otamurod
dostonlarida ijodkor
dunyoqarushi va lirik
qahramon muammosi

22
het



OBSUJDLEM, SPORIM

Совершенствование
системы тренингов
по обучению русскому
языку

84
het



O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2014-yil
19-dekabrda 0055-raqam
bilan qayta ro'yxtatga olingan.

2023-yil.
6-som.

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbar ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOVA
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinnbosari)

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-ju.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyyot@mail.uz
vcb-sayt: www.tilvaadabiyyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosigan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi" dan olind, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan magolalarda muallif-larning tahririyan o'ngayti nazariga muvoqiq kelmaydigan fikr-muhokazalar bo'shisi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiz qilinmaydi va muallifiga qutarylmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportga muvoqiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2023.30.05. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Oq'oz ichimni 60x841/8.
Sharshi bosma tabog'i 6,0. «Ariat» garniturası.
10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT»
MCU bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Miroboj tum., Matbuotchilar ko'chasi
32-ju. Buuyurtma — Adadi 3100 mossa. Bahos
kelishulgan narxi.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
MAKTABGACHA VA MAK TAB TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG
İLMIY-METODİK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

L ANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING ■ SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

SHANDOR PETEPI TAVALLUJDINING 200 YILLIGIGA
Asror Mo'min. Ozod qalb tug'yonlari 3

TILSHUNOSLIK
Ra'no Davlatova, Nafisa Musayeva. Tilshunoslikda bolalar mutqining o'rganilishi 4
Dilfuza Pulatova. Kelishik va ko'makchilar vazifadoshligi 5

ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGYALAR

Dilshod Muhibdinov. Proposals for the improvement of English language education 7
Farangiz Mamedova. Innovative methods in teaching foreign language 8
Marg'uba Siddiqova. Xitoy tyerogliflari o'rgatish bo'yicha uslubiy tavsiyalar 10
Umida Madaminova. Interaction patterns in online and offline classroom 13

TAHLII

Iqboloy Adizova. Navoiy yodga olgan shoirlar 15
Shoira Hoshimova. "G'ayning ikkinchi sayohati" qissasida psixologik tahlil 15
Dilafroz Rahmatova. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asari va uning til xususiyatlari 1
Fazliddin G'aniyev. Nemis adabiyyotida masal janri poetik takomil 2

TADQIQOT

Salima Jumayeva. Ikrom Otamurod dostonlarida ijodkor dunyoqarashi va lirik qahramon muammosi 22
Mahbuba Tojiboyeva, Alisher G'oziev. Nazir Ali Sayyidning "Lo'g'ate chig'atoyi beforsi" lug'ati 25
Baurjan Sayfullayev. Dialektal zonalarda kontaktlogiya masalasining badiy adabiyyotdagi xususiyatlari 27
Dilnoza Radjabova. Qimmatbaho tosh va madan nomlari shakhanishining nominatsion-motivatsion xususiyatlari 30
Mastura Karimova. Antropologik alluziv nom sifatida 32
Munojatxon Mamajonova, Nilufarxon Mahmudova. "Sayohatnomada miqdor anglatuvchi birilklarning o'mi 34
Muslimjon Nasirov, Malikaxon Meliqo'ziyeva. O'zbek til radioalaqqa sohasida birikma-terminlar 34
Taxminna Mansurova. Kognitiv tahlil doirasida bog'lovchi fe'llarning leksik-semantik imkoniyatlari 35
Xalida Avilova. O'qishi ko'ninkasini riwoylantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar 42
Soadat Kambarova. Adabiy ta'linda adabiyyatniga tushunchalar va ilg'or pedagogik tafakkur tadriji 44
Bahora Jo'raxolova. Frazeologik olam tasvirida konseptual metaforaning o'rni 4
Atag'ulla Satbayev. Sog'iboy Ibrohimov sh'eriyatida qushlar obrazining badiiy talqini 4
G'ulomjon Atadjanov. Istiglol davri o'zbek adabiyyotida tarixiy drama janri 50
Dilnoza Shermuhamedova. The ways of formation of students' individual work in the digitally integrated education 51
Feruzakhon Yunusova. Mobile-assisted language learning approaches and strategies 54

KIHNAT TADQIQOT

Mastona Yuldasheva. Semantic features of automotive terms in the English and Uzbek languages 5

METODIKA. O'PIT

Dilgara Zaripova. Изучение винительного падежа с применением языка-посредника на уроке
русского языка как иностранного 57

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Umida Pulatova. Процессуальные документы: анализ и выводы 61

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Nadira Sultanova. Использование метода комментированного чтения при анализе художественного
текста 63

Aslobek Erqashov. Ролевые игры на уроках литературы 65

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Aleksandra Ekabsonec, Lazosatkan Xasankhanova. Maxmudodka Bekhbudni kama multikulturalnaya
lichnost' i fenomen epoki 66

Baxtiyer Gaifurov. Linguistic investigation of aphorisms in medicine 69

Mujassab Komilova. Analiz uchibno-normativnogo i metodicheskogo obespecheniya v voenno-akademicheskikh
licenziyakh 70

Anna Kuruchstova. Жанровые традиции семейной саги в романе Марини Степановой «Женщины Лазаря» 74

Viktoria Gimadetdinova. Antropocentričeskaya napravленnost' lingvistiki kreativa 76

ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

Anara AHMEDOVA. «Доброта спасёт мир» (Книга – источник добра) 79

ВНЕАУДИТОРНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

Farida Umurova. Sluzhebnye chasti rechi 80

ОБСУЖДАЕМ, СПОРIM

Ranusha Ataeva. Совершенствование системы тренингов по обучению русскому языку 84

Zlinna Abdullaeva. Русский язык в Узбекистане на современном этапе 86

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

Feruzha Faizova. Novyj format sotrudnichestva medzhu vuzami Rossii i Uzbekistana 88

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берман И.М., Бухбинбер В.А. Очерки методики обучения чтению на иностранных языках. – Киев: Высшая школа, 1977.
2. Клычникова З.И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. 2-изд. – Москва: Просвещение, 1983.
3. Alderson J.C. Assessing reading. – Cambridge: C.U.P., 2000.
4. Shuying Ann. Scheme theory in reading // Theory of Practice in Language Studies, 2013, Vol. 3. No.1, pp.130–134.
5. Paul van den Broek, Anna Helber. A cognitive view of reading comprehension: Implications for reading difficulties // Learning disabilities research and practice, 2014, 29 (1), pp. 10–16.
6. Wanzek, et al., 2010; Swanson, Edmonds, Hairrell, Vaughn, & Simmons, 2011.

Saodat KAMBAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ADABIY TA'LIMDA ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALAR VA ILG'OR PEDAGOGIK TAFAKKUR TADRIJI

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalarni o'zlashtirish sifati o'qituvchining adabiy ta'lim jarayonini malakali tashkil etishi va ulami o'zlashtirishni boshqarish qobiliyatiga bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, "mualif – asar – kitobxon" kabi o'zaro bog'liq tushunchalarini o'rganish badiiy asarni estetik baholash uquviga ega kitobxonni tayyorlashga hissa qo'shishi masalasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar. Mualif, asar, kitobxon, mualif pozitsiyasi, adabiy-nazariy tushunchalar, retsipient-kitobxon, mualif-ijodkor.

Аннотация. В статье подчеркивается тот факт, что качество усвоения учащимися литературно-теоретических понятий и эстетических категорий зависит от умения учителя грамотно организовать процесс литературного образования и управлять их усвоением. Также изучение взаимосвязанных понятий типа «автор – произведение – читатель» будет способствовать подготовке читателя с умением эстетически оценивать произведение искусства.

Ключевые слова. Автор, произведение, читатель, авторская позиция, литературоцедческие концепции, реципиент-читатель, автор-творец.

Annotation. The article analyses the fact that the quality of students' acquisition of literary and theoretical concepts and aesthetic categories depends on the teacher's ability to competently organize the process of literary education and manage their acquisition. Also, the study of interrelated concepts such as "author – work – reader" will contribute to the preparation of a reader with the ability to appreciate the aesthetic work of art.

Key words. Author, work, reader, author's position, literary-theoretical concepts, recipient-reader, author-creator.

Adabiy ta'lim mazmunini takomillashtirish yo'llarini belgilash, muhim metodik muammo – adabiyot nazariyasini o'rganish yo'llari bo'yicha yangicha yondashuvlamani ishlab chiqishni talab etadi. Bizningcha, shunday tizim yaratilishi kerakki, adabiyotni o'rganish jarayoni, bir tomonidan, ularning ichki, o'zaro bog'liqligini aks ettirsa; ikkinchi tomondan esa, adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalar shunday algoritm bo'lib, ulardan foydalanan nazariy bilimlarni hayotda mustah-kam o'zlashtirish va ongli ravishda qo'llashni hamda insони fazilatlarini kamol toptirishni ta'minlashga xizmat qilishi muhim.

Professor Q.Yo'ldoshevning izlanishlarida to'g'ri qayd etilganidek, "Endilikda adabiyot nazariyasini bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilarning tafakkurini sinash va uni qiyash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahsil etishga ko'mak beradigan ma'lumotlar tarzida qaraladigan bo'ldi... Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror faktni sharillatib aytib bera ola-digan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy faktlarning xronikasini

bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirib ola bilgan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir" [4; 88-b.]. Fikrimizcha, o'quvchilar axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish bevosita badiiy asarni tahsil qilish va sharplash amaliyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "mualif – asar – kitobxon" tizimida amalga oshirilishi hamda fundamental kategoriya va tushunchalarning samarali o'zlashtirishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, filologik ta'lilda "mualif", "asar", "kitobxon" kategoriyalariga adabiyotning san'at turi sifatidagi mohiyatini anglash uchun zarur bo'lgan konseptual muammolar sifatida qaraladi. Bu esa muktabda adabiyotni o'rganishga estetik yo'nalish beradi, fanni o'qitish metodikasini boyitish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarda san'atning o'ziga xos xususiyatlarini idrok etish, san'atning boshqa turlari va ijtimoiy hayot namunalari, keng ko'lamlı madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishga, so'zning estetik jozibasi orqali ijodiy qobiliyatları ochilishiga imkon yaratiladi. Bu borada rus adabiyotshunos

olimi L.A.Novikov ta'kidlaganidek, "...so'zning estetik ta'siri uning yozuvchi tomonidan ijodiy yaratiganligi va o'quvchi tomonidan ijodiy qayta tildanganligi bilan izohlanadi. Bu nafaqat tushuniladi, balki tajriba hosl qiladi. She'riy obraz orqali har bir kishi badiiy nutqni idrok etuuchi kichik rassomga aylanadi" [3; 45-b.].

Adabiyyotni san'at turi sifatida tushunish, bizningcha, asosiy e'tiborni asarning g'oyaviy-tematik tahiliga emas, balki matn poetikasini rivojlantirishga, badiiy asar mazmuni chuqur tushunishga qaratib, diqqatni o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Zamona viy adabiy ta'limga takomillashtirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri adabiy-nazariy tushunchalar tizimini o'quvchilarning munosabatlari orqali yaratishdir. O'rganilayotgan ilmiy tushunchalarni tizimlashtirish va tartiblash o'quvchiga adabiyyotning fan va san'at turi sifatidagi mohiyatini anglash, adabiyyotni o'rganishning markaziy predmeti – badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradigan kategoriya va tushunchalarni ajratishni o'z ichiga oladi.

Biz umumiyl o'rta ta'limga maktablari adabiyyot darslarida adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalarni ularning o'zaro munosabatlarda shakllantirish konsepsiyasini taklif qilamiz. Bu "muallif – asar – kitobxon" tizimida amalga oshiriladi.

Muallif vogelikni ma'lum bir tarzda beradi va yoritadi. Ulami idrok etadi, baholaydi va ijodiy kuchini namoyon etadi. Bularning barchasi bilan u o'zini badiiy faoliyat subyekti sifatida ko'rsatadi. Faol va keskin munosabatlar: parallel holda hayot va asarning badiiy dunyosini tushunisga olib keladi.

Muallif muammosining metodik jihatlarini yoritib berishning boshlang'ich nuqtasi "muallif" atamasining ma'nosini aniqlashdan iborat:

1) bu muayyan taqdir, tarjimayi hol, individual xususiyatlar mujassam bo'lgan haqiqiy shaxs sifatida badiiy asarning yaratuvchisi;

2) badiiy matnda mahalliylashtirilgan muallif obrazi, ya'ni yozuvchi, rassom, haykaltarosh, rejissyorning o'z obrazi va h.k.

Asar kategoriyasining mazmuni, avvalo, uslub, metod, tur, janr, kompozitsiya, badiiy obraz toifalari orqali ochib beriladi. Ular o'tasida muvofiqlashtiruvchi aloqalarni uslub – metod – yo'nalish hamda tur – janr ketma-ketligidagi subordinatsiya asosida o'rnatish mumkin. San'atda keltirilgan asosiy kategoriyalardan tashqari o'quvchilarda mazmun va shakl kabi bir qator estetik kategoriyalar haqida tushunchalar shakllanadi.

Masalani monografik yo'sinda tadqiq etgan rus metodisti A.M.Antipovning qayd etishicha, "Asar – kitobxon" tizimi turli kategoriya va tushunchalar o'rta-sidagi munosabatni aks ettiradi. Turli kategoriyalarning o'zaro aloqalarini "kitobxon – uslub", "kitobxon – metod", "kitobxon – janr" yoki "kitobxon – yo'nalish" larida ajratib ko'rsatish mumkin. "Asar" kategoriyasi kitobxon kategoriysi bilan bog'lanib, "idrok qilish salohiyati" tushunchasining funksionalligini ko'rsatadi. Asarning o'quvchiga ta'siri uning janri bilan belgilanadi, bu ayni paytda muallifning "mavjud"ni ham ifodalaydi. Kitobxon asarga muallifning o'ziga xos "xabar"i sifatida murojaat qiladi [1; 38-b.].

Kitobxon kategoriyasi mazmuni o'zaro bog'liq, ammo bir xil bo'limgan "ijodkor kitobxon", "adresat" ("xayoliy" kitobxon), "kitobxon obrazi" tushunchalari orqali aniqlashiriladi. "Ijodkor" kitobxon va "xayoliy" kitobxon, bir tomonidan, qarama-qarshi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ular shartlangan va o'zaro bog'liqdir. Shuningdek, "xayoliy" va ijodkor kitobxon o'tasidagi bog'liqlik asosida kitobxon va muallif o'tasidagi fikr-mulohazalar haqida ham gapirish mumkin. Asar yaratish jarayonida yozuvchi ongida o'zining faraziy kitobxoni haqida fikr paydo bo'ladi, u ijodkorga "sherik", uslub yaratuvchi omil vazifasini bajaradi. Bu borada professor S.Matchonovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rindir: "Yozuvchi singari kitobxon ham ijodkor hisoblanadi. Aks holda o'quvchi yozuvchi yaratgan obrazli tasvirni tushunmagan bo'ler edi. Kitobxon ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, u muallif tasvirlagan hayot materialini xayolida qayta yaratib, yangi badiiy olam kashf etish yo'lidan boradi" [2; 58-b.].

Ko'rindaniki, "Muallif – asar – kitobxon" tizimi ijod subyekti, asar va idrok predmeti munosabatini o'z ichiga oladi: badiiy asar orqali retsipient-kitobxon muallif-ijodkor bilan muloqotga kirishadi. O'quvchilarda asosiy toifalarning har biri haqida aniq g'oyalar ularni o'zlashtirishning konsentrik yo'llini taqozo etadi.

Xulosa qilganda, adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalarni tizimlashtirish bo'yicha tajribalarimiz adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriya orasida; adabiyyot nazariyasini va estetika o'tasidagi o'zaro bog'liqlikning turli darajalarini aks ettiradi. Natijada o'quvchilarda mustaqil tafakkur yuritish, o'qiganlarini hayotga tatbiq etish, badiiya asardon estetik zavq olish kabi muhim sifatlar shakllanishiga zamin yaratiladi.

Foydalilanigan adabiyyotlar

1. Антипова А.М. Взаимосвязь теоретико-литературных и эстетических категорий и понятий в школьном курсе. Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – М., 2005. – 44 с.
2. Матчонов С. М. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.
3. Новиков Л.А. Искусство слова. – М.: Педагогика, 1991. – 144 с.
4. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафқуру ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 1997. – 306 б.